

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60210800- Amaliy san'at bakalavriat ta'lim yo'nalishining*  
***MALAKA TALABI***

Toshkent-2024

**J'ZR OTFIV**  
**Buyruq № 218**  
2024yil "25" 06

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” iyun dagi 298 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	7
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	11
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	12



## **1. Umumiy tavsifi**

60210800 - Amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi Amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Bolalar musiqa va san’at maktablari, barkamol avlod bolalar maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va dizayn maktablarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, Davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va ta’lim muassasalari, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va sohaga oid korxonalarda amaliy bezak san’ati bilan bog‘liq loyihalarni tayyorlash, badiiy-ijodiy faoliyat olib borish, amaliy san’at asarlaridan namunalarni yaratish, hunarmandchilikda yakka tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, Madaniy ma’ros obektlari va ta’mirlash markazlarida ta’mirlash ishlarini olib borish, amaliy san’at mahsulotlarining sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.



### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va ta’lim muassasalari, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va sohaga oid korxonalarda **amaliy san’at bo‘yicha mutaxassis** (badiiy naqqoshlik, badiiy kulolchilik, badiiy zargarlik, amaliy san’at asarlarini ta’mir qilish, me’moriy yodgorliklar bezagini ta’mir qilish).

60210800 – Amaliy san’at bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60210800 - Amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan amaliy san’at sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

amaliy bezak san’at turlarini o‘rganish, ijodiy asarlar yaratish, amaliy san’at asarlarini ta’mir qilish sohaga oid ijodiy va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish, milliy va zamonaviy amaliy bezak san’ati sohasidagi obyektlarni tahlil qilish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

amaliy san’at asarlari loyihasini tizimli yondashuv asosida yaratishni takomillashtirish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

amaliy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.



### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Amaliy san’at sohasida texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko‘rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko‘rish;

amaliy san’at sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

amaliy san’at sohasida tashkilot, korxonalaridagi amaliy bezak san’ati ustaxonalari va unga tegishli bo‘lgan bo‘limlarni boshqarish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

ijodiy guruh faoliyatini tashkil qilish;

texnik xavfsizlik qoidalarini bilish va amal qilish;

badiiy estetik didga va uni tadbiq qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

### **Loyihaviy- konstruktiv faoliyatida:**

Amaliy san’at sohalarida loyihalarini ishlab chiqish, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

Kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, badiiy-ijodiy tahlil qila olishi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo‘llay olishi;

og‘zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va xulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;



ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

amaliy san’at sohasiga oid axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

amaliy san’at sohasida loyihalarni badiiy taxlil qilish, ashyolarga badiiy ishlov berish, badiiy kompozitsiyalar yaratish, amaliy san’at asarlarini ta’mirlesh, amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqarishni;

amaliy san’at asarlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo‘yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;

amaliy san’at sohasidagi korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo‘yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

an’anaviy amaliy bezak san’atini ustoz-shogird tizimi asosida takomillashtirish, estetik va badiiy didni shakllantirish, amaliy san’at asarlarini ta’mirlesh, amaliy san’at asarlarini o‘rgatish va ularni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish, ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalaridagi mehnat faoliyatlari uchun mustahkam zamin tayyorlash;

ishlab chiqarishda muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralari ishlab chiqish uchun mijozlar, ichki bo‘limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo‘lishi;

amaliy san’at sohasida ishlab chiqariladigan ijodiy ishlar sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.



**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	O'EYat1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	2
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	2
1.04	SSAT1104	San'at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	1
1.05	O'zT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.06	Din1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.07	AST1208	Amaliy san'at tarixi	240	8	3,4
1.08	PA1104	Plastik anatomiya	120	4	1
<b>Badiiy naqqoshlik turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.09	Chiz1748	Chizmatasvir	1440	48	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Rang1750	Rangtasvir	1500	50	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MatShun1104	Materialshunoslik	120	4	1
1.12	RvaKA1104	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	2
1.13	Loyih1707	Loyihalash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	AIsh1707	Ashyolarda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.15	ASTur1208	Amaliy san'at turlari	240	8	5,6
1.16	AT1104	Ashyolar texnologiyasi	120	4	3
1.17	KBL1104	Kompyuterda badiiy loyihalash	120	4	4
1.18	MBST1104	Mutaxassislik bo'yicha san'at tarixi	120	4	4
1.19	NK1208	Nusxa ko'chirish	240	8	5,6
1.20	ABIB1104	Ashyolarga badiiy ishlov berish	120	4	7
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3,5,7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	480	16	3,5,7
Kvalifikatsiya		Amaliy san'at bo'yicha mutaxassis: naqqosh dizayner			
<b>Badiiy zargarlik turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.09	Chiz1748	Chizmatasvir	1440	48	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Rang1750	Rangtasvir	1500	50	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MatShun1104	Materialshunoslik	120	4	1
1.12	RvaKA1104	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	2
1.13	Loyih1707	Loyihalash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	AIsh1707	Ashyolarda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.15	Model 1208	Modellashtirish	240	8	5,6
1.16	AT1104	Ashyolar texnologiyasi	120	4	3
1.17	MP1104	Mayda plastika	120	4	4
1.18	ZST1104	Zargarlik san'ati tarixi	120	4	4
1.19	Grav1208	Gravirovka	240	8	5,6
1.20	ABIB1104	Ashyolarga badiiy ishlov berish	120	4	7



<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3,5,7</b>
2.00		Tanlov fanlar	480	16	3,5,7
Kvalifikatsiya		Amaliy san'at bo'yicha mutaxassis: zargar dizayner			
<b>Amaliy san'at asarlarini ta'mirlash turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.09	Chiz1748	Chizmatasvir	1440	48	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Rang1750	Rangtasvir	1500	50	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MatShun1104	Materialshunoslik	120	4	1
1.12	RvaKA1104	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	2
1.13	Loyih1707	Loyihalash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	AIsh1707	Ashyolarda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.15	AST1208	Amaliy san'at turlari	240	8	5,6
1.16	AT1104	Ashyolar texnologiyasi	120	4	3
1.17	MBH1104	Mutaxassislik bo'yicha haykaltaroshlik	120	4	4
1.18	MBST1104	Mutaxassislik bo'yicha san'at tarixi	120	4	4
1.19	NK1208	Nusxa ko'chirish	240	8	5,6
1.20	ABIB1104	Ashyolarga badiiy ishlov berish	120	4	7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3,5,7</b>
2.00		Tanlov fanlar	480	16	3,5,7
Kvalifikatsiya		Amaliy san'at bo'yicha: amaliy san'at asarlarini ta'mirlovchi rassom			
<b>Badiiy kulolchilik turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.09	Chiz1744	Chizmatasvir	1320	44	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Rang1744	Rangtasvir	1320	44	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MatShun1104	Materialshunoslik	120	4	1
1.12	RvaKA1204	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	2,3
1.13	Loyih1707	Loyihalash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	AIsh1707	Ashyolarda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.15	KBT1208	Kulolchilik bezak turlari	240	8	3,4
1.16	AshTex1514	Ashyolar texnologiyasi	420	14	3,4,5,6,7
1.17	MBH1104	Mutaxassislik bo'yicha haykaltaroshlik	120	4	2
1.18	KST1308	Kulolchilik san'at tarixi	240	8	5,6,7
1.19	MayPla1206	Mayda plastika	180	6	4,5
1.20	NK1102	Nusxa ko'chirish	60	2	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3,5,6,7</b>
2.00		Tanlov fanlar	480	16	3,5,6,7
		Amaliy san'at bo'yicha mutaxassis: kulol-rassom			
<b>Me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.09	Chiz1744	Chizmatasvir	1320	44	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Rang1744	Rangtasvir	1320	44	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MatShun1104	Materialshunoslik	120	4	1
1.12	RvaKA1204	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	2,3
1.13	Loyih1707	Loyihalash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.14	AIsh1707	Ashyolarda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.15	TA1208	Ta'mirlash asoslari	240	8	3,4



1.16	AT1514	Ashyolar texnologiyasi	420	14	3,4,5,6,7
1.17	MBH1104	Mutaxassislik bo’yicha haykaltaroshlik	120	4	2
1.18	MBST1308	Mutaxassislik bo’yicha san’at tarixi	240	8	5,6,7
1.19	TIshY1206	Ta’mirlashda ish yuritish	180	6	4,5
1.20	NK1102	Nusxa ko’chirish	60	2	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>3,5,6,7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	480	16	3,5,6,7
Kvalifikatsiya		Amaliy san’at bo’yicha mutaxassis: ta’mirlovchi rassom			
		<b>Jami:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Malakaviy amaliyot	<b>840</b>	<b>28</b>	<b>(4,6,8)</b>
		Bitiruv malakaviy ishi	<b>240</b>	<b>8</b>	<b>8</b>
		<b>Jami:</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kulol, amaliy, ta'mir, konservatsiya, rekonstruksiya, proyeksiya, aksonometriya, bezak, rapport, analogiya, xajmiy-fazoviy yechim, fiksatsiya, umumiy, yaxlitlik, qoralama, eskiz, karton, dinamika, statika, dinamika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, axromatika, xromatika, kompozitsion yechim, kompozitsion joylashuv, mozaika, mayolika, terrakota, kundal, ganch, naqqoshlik, geometrik tahlil, fazoviy chuqurlik, siluet, refleks, etyud, faktura, kolorit, avangard, modern, stilizatsiya, konstruktivizm, islmiy, girih, targ'il, pardozi, qabariq, botiq, bo'rtma, texnika, texnologiya xom ashyo, emal, minoi, sirlash, simkori, nozik sim, sovtkori, gravirovka, tillahal, zig'irak, o'yma, payvandlash, toblash, kavsharlash, sayqallash, flyus, bura, azot, oltingugurt, patash, gips, polimer, vaks, ma'dan, mum, geometrik tahlil, fazoviy chuqurlik, kolorit, uslub.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektor  A. Mirzoraximov

2024 yil “ 25 ” 06  
M.O’




O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev



2024 yil “ 25 ” 06  
M.O’

KELISHILGAN:


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor  M. Boltabayev



2024 yil “ 25 ” 06  
M.O’

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A. Nuridinov



2024 yil “ 25 ” 06  
M.O’

YTT “Shernazarov Shamsiddin  
Mahmadqulovich”

Rahbar  Sh. Shernazarov

2024 yil “ 25 ” 06



M. O’